# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

2023
3-son

ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal



ISSN 2181-8274

*Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal.*
*1996-yilda tashkil etilgan.*

Tahrir hay'ati raisi:
**Sh.U.Yakubov**
Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi direktori

Tahrir hay'ati raisi o'rinbosari:
**M.X.Esanov**

Bosh muharrir:
**A.T.Eshmurodov**

Bosh muharrir o'rinbosari:
**A.A.Sabriyev**

Tahrir hay'ati a'zolari:
**L.R.Zaripov**
**A.A.Dadasheva**
**Sh.A.Rasulov**
**M.M.Inagamova**
**S.Q.Maxsumova**
**S.S.Samandarova**
**M.Q.Sultonov**
**S.S.G'oziyev**
**O.N.Toshpulatov**

Jamoatchilik kengashi a'zolari:
**Q.X.Abduraxmanov**
**Sh.T.Qudratxo'ja**
**G.Sh.Rixsiyeva**
**Sh.S.Sirojiddinov**
**R.I.Xolmurodov**
**A.I.Toshpulatov**
**N.M.Jabborov**
**M.A.Raxmatullaev**
**T.Z.Teshabayev**

Dizayner:
**S.Musamedov**

# TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA

**Шухрат Якубов.**
Конституциявий ислоҳотлар: жамият интеллектуал салоҳиятини ривожлантиришда давлатнинг роли ... 6
**Gulnora Kushakova, Sitora Nizomova.**
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari ... 10
**Қобулжон Исроилов.**
Акмеограмма акмеографик ёндашувнинг асосий методини қўллаш ... 12
**Dildora Jo'rayeva.**
Talabalarning mustaqil ta'limini bulutli texnologiyalarga asoslangan axborot muhitida tashkil etish yo'llari ... 15
**San'at Raxmatov.**
Fizika fanidan predmetli va metapredmetli natijalarga erishgan holda o'quvchilarning axborot kompetentligini shakllantirish modeli ... 18
**Юлдуз Жумаева.**
Бўлажак тарих ўқитувчисини форсайт технологияси асосида касбий фаолиятга тайёрлаш хусусиятлари ... 22
**Inobad Yuldasheva.**
Yoshlarda kasbiy qadriyatni rivojlantirish ... 25
**Nigora Irbutaeva, Valentyna Vladymyrova, Olena Shevchenko, Tetyana Leshchenko.**
Professionally important qualities of medical students ... 28
**Зарифа Кабирова.**
Аралаш таълим технологиясининг афзалликлари ... 32
**Иқбол Қайнарова.**
Бўлажак тарих ўқитувчиларини инновацион фаолиятга тайёрлаш ... 35
**Khilola Rakhimova.**
The role of multimedia platforms in increasing the efficiency of teaching and learning ... 37
**Гулҳаё Тўйчиева.**
"Коучинг" методикасининг афзаллиги ... 40
**Zarnigor Abidova.**
Professional ta'limda o'quvchilarning loyihaviy faoliyatini amalga oshirishda axborot-kommunikatsiya ta'lim texnologiyalaridan foydalanish ... 42
**Nurbek Imankulov.**
The evolution of stem, steam and stream education in the countries of the world is an example of african countries ... 46
**Гулнора Эрназарова.**
Бўлажак ўқитувчиларда аутопедагогик компетентликни шакллантиришнинг зарурлиги ... 50
**Gulnora Kushakova, Kamola Mirzayeva.**
Hamkorlikka asoslangan yondashuv asosida mashg'ulotlarni tashkil etish dolzarb pedagogik muammo sifatida ... 53
**Jamoliddin Shohimardonov.**
Postnoklassik muhitda fizika darsliklariga qo'yiladigan talablar ... 56
**Ҳулкарой Бабаева.**
Рефлексив технологиялардан ўқитиш тизимида фойдаланиш ... 59
**Антонина Кошелева.**
Инновации в образовательном процессе ВУЗов сферы искусств и культуры ... 62
**Gullola Farkhodova.**
Learning languages with modern technology ... 65
**Sarvinoz Xojiyeva.**
Kimyo ta'limining tashkiliy shakli bo'lgan dars va uni tashkil etish texnologiyasi ... 68
**Nodirbek Nosirov.**
Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining metodik kompetentligini takomillashtirish modeli ... 71
**Эркин Рўзиев, Жавлон Тожиев.**
Бўлажак технология фани ўқитувчиларининг "Халқ ҳунармандчилиги ва бадиий лойиҳалаш" фанидан касбий компетенцияларини шакллантириш ... 75

**Muassislar:**
*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi,*
*Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish markazi*

**Manzil:** 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Shifo nur ko'chasi, 75-uy
**Telefon:** (71) 207-03-41
**e-mail:** rmxat@edu.uz

**Jurnal O'zbekiston Matbuot va axborot agentligidan 2014-yil 26-dekabrda 0506 raqami bilan ro'yxatdan o'tgan.**

*Jurnal har ikki oyda o'zbek, rus va ingliz tillarida elektron shaklda chop etiladi.*

"Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2015-yil 18-noyabrdagi 218/5-sonli qarori bilan 13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI bo'yicha, 2018-yil 28-noyabrdagi 247/6-sonli qarori bilan 23.00.00 – SIYOSIY FANLAR bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

"Ta'lim, fan va innovatsiya" jurnalidan ko'chirib bosish faqat tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi. Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir. Tahririyat fikri mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin.

*Jurnalning to'liq matnini **esijournal.uz** rasmiy saytidan yuklab olishingiz mumkin.*

*Maqola va murojaatlarningizni **@esijournalbot** telegram botiga yuboring.*

**Нигора Курбанова.**
Профилактика виктимного поведения студентов в интернете ........ 79
**Ruxsora Abduraimova.**
How to develop critical thinking skills of students........ 81
**Эркин Рузиев.**
Графика фанларининг таълим тизимида ва кадрлар тайёрлашдаги ўрни ........ 85
**Venera Narimova.**
O'quvchilarni kimyoviy moddalar bilan tanishtirish va kimyo faniga qiziqishlarini shakllantirish metodikasi ........ 89
**Фарзона Алимова.**
Проективная деятельность студентов по составлению глогстеров ........ 92
**Barno Turdikulova.**
Ingliz tilida geologik atamalar yasalishidagi samarali usul ........ 95
**Barchinoy Sultanova.**
How to teach speaking to esp students using technology ........ 99
**Sojida Mustanova.**
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda tolerantlik munosabatlarini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari........ 102
**Akramjon Mamasidiqov.**
Sotsiologiya fanining ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni ........ 104
**Behzod Qarshiyev.**
Innovatsion jarayondagi o'quv-ilmiy-ishlab chiqarish majmuasining turli funksiyalari...... 107
**Aziza Azimova.**
Theoretical approaches to terms and terminologies in linguistics ........ 110
**Sohibaxon Abdullayeva.**
Talaba yoshlarda ijtimoiy faollikni shakllantirishning psixologik xususiyatlari ........ 112
**Антонина Кошелева.**
Интеллектуальное развитие личности с учетом исторического подхода........ 115
**Rustam Xudaykulov.**
Bo'lajak muhandislarni mutaxassislikni hisobga olgan holda fanlar o'rtasidagi aloqalar orqali mutaxassislikka qiziqishni oshirish imkoniyatlari........ 117
**Mavluda Khasanova.**
Problems in teaching terminology to esp students........ 121
**Манзура Юлдашева, Асылбек Колканатов**
Культурные новации в проведении фестивалей эпохи глобализации и цифровизации........ 124
**Малика Курбанова, Эльдар Бабаев.**
Сопоставительный анализ значений временных форм глагола в русском и узбекском языках........ 127
**Uyg'un Shodmonov.**
Reading comprehension challenges and the strategies to overcome them ........ 131
**To'lqin Anorov.**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish kompetensiyalarini baholash........ 133
**Ойгул Бердиева.**
Танлов синфларда ноевклид геометрияни ўргатишнинг ташкилий асослари........ 137
**Talgat Kaipnazarov, Aynura Alimbetova, Naubahar Paluaniyazova.**
Umumiy jismoniy tarbiya ........ 140
**Sayyora Ummatkulova.**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining matematika darslarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini raqamli texnologiyalar asosida shakllantirishning mavjud holati........ 144
**Farhod Qalandarov.**
Talabalarning kimyo fani tarkibining transparant shaklini yaratish tamoyillari........ 146
**Ҳамид Ботиров.**
Мактабларда рақобат муҳитини яратиш бўйича таълим сифатини баҳолаш соҳасида халқаро тадқиқотларнинг аҳамияти ........ 149
**Dostonjon Abulxayirov.**
Theoretical basis in interpretation in foreign languages........ 152
**Наргиза Тожибоева.**
Особенности ведения русскоязычных переговоров в сми (по материалам информационных сайтов podrobno.uz, kun.uz, lenta.ru, ria.ru) ........ 155
**Нилуфар Рохимова.**
Таълимда компетенциявий ёндашувнинг аҳамияти ва ўзига хос хусусиятлари........ 158
**Maftuna Inomjanova.**
The importance of using interactive activities while teaching english language, deductive and inductive method of teaching ........ 161

**Aydos Shilmanov.**
Milliy xalq oʻyinlarining pedagogik mohiyati................................164
**Zamira Teshabayeva, Iroda Shokirova, Nargiza Qurbonova.**
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida sahnalashtirish faoliyatini tashkil etish shakllari.......................................................................167
**Nazira Roʻziyeva.**
Oʻquvchilarga tabiatni muhofaza qilish, uni asrash va e’zozlash orqali ekologik tarbiya berish ................................................................. 169
**Fayyoza Xo’jamurodova.**
Inclusive method for foreign language learners..............................173
**Javlon Tajiyev.**
Boʻlajak texnologiya fani oʻqituvchilarining xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash boʻyicha kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish ..................................................177
**Hoshimjon Nurullayev.**
Oʻzbekiston ekoturizmidagi muammolar va yechimlar..................181
**Navruz Daminov, Durdonakhon Khasanxonova.**
The principle of focusing on meaning in translation ......................185
**Dilshod Eshboboyev.**
Menejerlarni kasbiy tayyorlash va ularga qoʻyiladigan talablar......187
**Марина Алимова.**
Использование песен в обучении грамматике английского языка студентов высших учебных заведений............................190
**Sherali Abduraimov, Javohir Xolmatov.**
Boshlangʻich sinf oʻqituvchisini tayyorlashning integratsiyalashgan pedagogik mexanizmi ....................................193
**Шерзод Уринбоев.**
Талабаларнинг жисмоний тарбия машғулотлари жараёнида мотивациясини ривожлантириш назарияси ...............................197
**Zayniddin Xoʻjanazarov.**
Ta’lim muassasalarida smart-ta’limni tashkil etish va uning imkonyatlaridan foydalanish..........................................................201
**Лола Ражабова.**
Дифференциал таълим асосида талабаларни ижтимоий-педагогик фаолиятга тайёрлаш тамойиллари ............................204
**Dilshod Eshboboyev.**
Boʻlajak menejerlarning kasbiy kompetentligi...............................206
**Дилфуза Султанова.**
Ижтимоий-педагогик амалиётда оиланинг аҳамияти ...............209
**Azamat Eshmurodov.**
Texnika ixtisosliklari talabalarining axborot texnologiyalari fanidan mustaqil ta’limini tashkil etishda web texnologiyalardan foydalanish metodikasi ....................................212
**Дилрабо Талабова.**
Бошланғич синф ўкувчиларида инсонпарварлик фазилатини шакллантириш босқичлари....................................216
**Jonibek Doʻstov.**
Sport turizmida xavfsizlik qoidalarini shakllantirishning asosiy mezonlari ...........................................................................220
**Мукаддас Рахимова.**
Процессы усовершенствования системы государственного управления в узбекистане .............................222
**Alisher Sabriyev.**
Gʻazal lingvopoetik tahlilida fonetik xususiyatlar (Alisher Navoiyning “Aylab” radifli gʻazali misolida)...................226
**Шахноза Мирзарахмонова.**
Таълимнинг инновацион кластерида дуал таълимни ташкил этиш асослари................................................................230
**Nozima Nishanova.**
Modern methods of teaching the german language ........................232
**Хабиба Юсупова.**
Ҳамкорликка асосланган таълимда интерфаол ўйинларнинг миллатлараро мулоқотга тайёрлашдаги аҳамияти.....................235
**Gʻiyosiddin Xudoyberdiyev.**
Boshlangʻich sinf oʻquvchilarida sogʻlom turmush tarzi mazmunini etnosport vositasida rivojlantirishning pedagogik tizimi................238
**Зухра Султанова.**
Ахборот-коммуникацион технологиялар имконияти чекланган болаларни инклюзив таълимга тайёрлаш омили сифатида (кар ва заиф эшитувчи болалар мисолида)...............................241
**Inom Rasulov.**
Oliy ta’lim tizimida dasturlash tillarini oʻquvchilarga oʻqitishning metodik asoslari........................................................244
**Aygul Kaldibaeva.**
Pedagogical conditions for the development of professional competence of future students through problem educational technologies ..................................................................................247
**Исмоилжон Бакиров, Мухаммадхусан Қодиров.**
Жисмоний тарбия дарсларини ўқитишнинг педагогик методлари...................................................................250
**Наргиза Тожибоева.**
Проблемы ментальности и ее отражение в языке......................252
**Jamshid Xakimov.**
Talabalarning axborot-loyihalash kompetentligi pedagogik tadqiqot manbayi sifatida .............................................255
**Зарива Мамазова.**
Таълим муассасаларида инновацион таълим жараёнини ташкил этиш механизмлари........................................................258
**Avazbek Mallaboyev.**
Musiqa oʻqituvchilarining akademik mobilligini rivojlantirish.......260
**Gulnoza Yunusova.**
The importance of testing methods in the active formation of knowledge, skills and abilities of students.....................................262
**Неъматжон Шодиев.**
“Машина деталлари” фанини ўқитиш орқали муҳандислик йўналиши талабаларини лойиҳавий-конструкторлик фаолиятига тайёрлаш..................................................................265
**Mahliyo Inomova.**
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni badiiy adbiyot bilan tanishtirish.....................................................268
**Асилбек Эгамбердиев.**
Развития профессиональной компетентности будущих учителей физического воспитания............................................271
**Lola Eliboyeva.**
Mttda faoliyatlarni innovatsion pedagogik texnologiyalar vositasida tashkil etishning samarali yoʻllari.................................275
**Дилшод Баратов.**
Талабалар креатив компетентлигини ривожлантириш методикаси .......................................................278
**Nasiba Xakimova.**
Pedagogical skills in training and its promising solutions..............281
**Камолиддин Мисиров, Абдукарим Назаров, Тамара Абдибаева.**
Мамлакат миллий иқтисодиётни ислоҳ қилишда кўчмас мулк объектларини баҳолашнинг айрим масалалари................284
**Nodira Yusupova.**
Umumta’lim maktablarda oʻquvchilarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ...................................................288
**Баходир Султонов.**
Рақамли трансформациялаш жараёнида янги профессионал таълим тизимини такомиллаштиришнинг зарурияти................290
**Husnora Kuranboyeva.**
Boʻlajak boshlangʻich sinf oʻqituvchilarining kredit-modul tizimida filologik ta’lim olishi va mustaqil oʻqish metodikasi ........293
**Виктория Дворяшина.**
Отражение экологического сознания в «Путешествии с чарли в поисках америки» Джона Стейнбека...........................297
**Elmurod Eshqobilov.**
Kompetentli yondashuv ta’limni yangilashning omili sifatida........301
**Шухрат Ўринов.**
Талабаларни физикадан касбга йўналтирилган

умумтехник масалаларни ечишга тайёрлаш ..............................304
**O'g'iloy Urazova.**
Talaba qizlarning oilaviy hayotga qadriyatli munosabatini rivojlantirish ..............................309
**Aybek Igilikov.**
Educational and development ..............................311
**Тўйчи Ахмедов.**
Суд ҳокимиятида коллегиаллик ..............................314
**Gulxumor Yusupova, Shohsanam Sobirova.**
Sinxron tarjimonlarni tayyorlash va sinxron tarjimonga qo'yilgan talablar ..............................318
**Умидбек Курбонов.**
Профессионал таълим тизимида моддий-техник базанинг аҳамияти ..............................321
**Matluba Usmonova.**
Ajdodlarning boy merosiga tayanadigan milliy va umuminsoniy g'oyalar ..............................323
**Алишер Эрназаров.**
Олий таълим муассасаларида ўқув машғулотлари вазифаларни шакллантириш натижасида ҳал этилувчи педагогик вазифалар ..............................326
**Dinara Tengelbaeva.**
The network "bumerang" technology in teaching "information technologies in education" ..............................329
**Мухаммадбобур Муминов.**
Развитие креативной компетентности курсантов военно-учебных заведений ..............................332
**O'rinposhsha Qalandarova.**
Texnologiya o'qituvchilarini axborot olishini kompetensiyaviy rivojlantirish pedagogik muammo sifatida ..............................336
**Курбанали Рузиев.**
Бўлажак ўқитувчиларни кластерли лойиҳалар орқали касбий фаолиятга тайёрлаш ..............................339
**Shaxnoza Yakubova.**
Sharq allomalarining pedagogik ta'limotlari asosida talabalarda pozitiv dunyoqarashning shakllanganlik darajasini aniqlash bo'yicha tajriba-sinov ishlari ..............................342
**Яшнарбек Шарипов.**
Методика проведения инновационного урока по материаловедению ..............................345
**Gulmira Umurzakova.**
Use of innovative technologies in organizing educational and educational processes in preschool educational organizations ..............................348
**Дўстназар Химматалиев.**
Олий таълим муассасаларида фанлараро узвийликни таъминлаш орқали таълим сифати ва самарадорлигини ошириш ..............................351
**Yoqutxon Najmiddinova.**
"Kasbiy tafakkur" tushunchasining pedagogik-psixologik talqini ..............................353
**Kamola Abrorxonova, Zulayho ismatova, Muhammad dehqonboyev.**
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tolerantlikni shakllantirish pedagogik muammo sifatida ..............................356
**Гулмира Ризамухамедова.**
Роль инновационных методов в развитии профессиональных навыков студентов ..............................358
**Nigora Sharapova.**
The role of interactive methods in the development of student critical thinking ..............................361
**Mirolim Tursunov.**
Oliy ta'lim muassasalarida talabalarni o'qitishda elektron ta'lim resurslarning funksional imkoniyatlari ..............................363
**Гулзода Ибрагимова.**
Бўлажак муҳандислик йўналиши талабаларини муҳандислик ўйинлари асосида инновацион фаолиятга тайёрлаш шарт-шароитлари ..............................366
**Gulxumor Yusupova, Shohsanam Sobirova.**
Universitet talabalariga tarjima metodlari va usullarini o'rgatish ..............................369
**Erkin Imamnazarov.**
Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorlashda raqamli texnologiya vositasilaridan foydalanish ..............................372
**Мохигул Каримова.**
Мактабгача ёшдаги болаларнинг мантиқий фикрлашини шакллантиришда ўйин фаолияти ..............................375
**Sunnatullo Do'stov.**
IV sinf "Tabiatshunoslik" fani doirasida o'quvchi ekologik tafakkurini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish ..............................378
**Ёқутхон Эркабаева.**
Матбуотнинг номоддий маданий меросни асрашда ахборот-коммуникатив ва таҳлилий вазифалари мазмунининг ўзгариш тенденциялари ..............................381
**Muyassar Xidoyatova.**
Mathematical foundations of processing the results of astronomical ..............................384
**Qaxramon Mashrapov.**
Texnik oliy ta'lim muassasalaridagi "Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi" mutaxassislarini o'qitishda kredit-modul tizimining o'rni ..............................386
**Диана Якубова.**
Креативное мышление как объект психолого-педагогических исследований ..............................390
**Oybek Xudayberdiyev.**
"Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda konfliktologik madaniyatni shakllantirishning didaktik imkoniyatlari ..............................393
**Зухра Султанова.**
Таълимда ахборот-компьютер технологияларидан фойдаланиш имкониятлари ..............................395
**Sherzod Egamqulov.**
Elektron ta'lim resurslaridan foydalanib bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish ..............................398
**Мохигул Каримова.**
Мактабгача ёшдаги болаларнинг мантиқий фикрлашини шакллантиришда ўзбек халқ ўйинларининг тарбиявий аҳамияти ..............................402
**Raya Auezova.**
The organization of independent education of future teachers ..............................405
**Abduvali Ernazarov.**
Talabalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishning nazariy asoslari ..............................408
**Музаффар Тўраев.**
Бўлажак мутахассисларнинг ахборот-коммуникатив компетентлигини ривожлантириш зарурияти ва ўзига хос хусусиятлари ..............................410
**Sarvinoz Ibroximova.**
Sun'iy intellektning kelib chiqishi va hozirgi davrda jamiyat hayotidagi ahamiyati ..............................412
**Дилафруз Суфиева.**
О качественных изменениях в нормотворческом процессе ..............................415
**Panji To'rayev.**
Milliy kurash bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil etish va uni o'tkazishda pedagogik jihatlar ..............................419
**Ilkhomjon Tukhtasinov, Ra'no Ziyotova.**
The main parameters of oral interpreting ..............................422
**Aziza Rajapova.**
Astronomiyadan laboratoriya ishlarini o'tkazishda raqamli texnologiyalardan foydalanish ..............................425
**Eldor Kurbanov.**
Zamonaviy demokratik taraqqiyotning kontseptual va institutsional asoslari ..............................428
**Nigora Safarbayeva.**

Higher education institutions nationwide matamatics .....................431
**Oylola Ibrohimova.**
Tesol xalqaro o‘qitish dasturida baholash savodxonligi ..................434
**Asliddin Namazov.**
XX asrning 30-yillarida O‘zbekistonda madaniy-ma’rifiy ishlar....437
**Dildoraxon Malikova.**
Talaba qizlar tarbiyasida gender tenglik prinsipini ta’minlash: tyutorlik konteksti ..........................................................................441
**Saodat Kambarova.**
Adabiyotni qanday o‘qitish kerak? ..................................................443
**Samad Otamirzayev.**
Professional ta’lim o‘quvchilarining kimyo faniga doir amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ilmiy-pedagogik muammolar va ularni bartaraf etish usullari ....................................447
**Mahkamoy Rahmonberdiyeva.**
Mitraning Yunon-Baqtriya va Kushon davri tangalarida ifodalanishi.......................................................................................449
**Toxir Haqqulov.**
Tarbiyaviy ishlar jarayonida artpedagogikadan foydalanish modeli..........................................................................453
**Нодира Гафурова.**
“Тарбия” фани асосида бошланғич синф ўқувчиларининг толерантлик кўникмаларини ривожлантириш технологияси....456
**Akmal Qodirov.**
The essence of reflective competence and its importance in language teaching ....................................................459
**Xolida Eshchanova.**
O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari va olib borilayotgan islohotlar.............................................................462
**Ilhom Hoshimov.**
Tarixiy-madaniy milliy merosni saqlashda o‘qituvchining roli.......467
**Maftuna Abdreimova.**
Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyatlar samaradorligini oshirishda pedagogik multimedia vositalaridan foydalanish...........470
**Sherali Ochilov, Nigora Rasulova, Xurshid Rahmonov.**
Iqtisodiy masalalarni yechishda differensial tenglamalarni qo‘llash.....................................................................473
**Maxbuba Sultonova.**
Pedagog nutqi va dilkashligining tinglovchi psixologiyasiga ta’siri .....................................................................477
**Абдурахмон Очилов.**
Инновацион мактабларни ташкил этишнинг ўзига хос хусусиятлари.................................................................479
**Shahnoza Usmonova.**
O‘zbek va ingliz tilida landshaft atamalarining qiyosiy tahlili........482
**Otabek Raxmatov.**
Akmeologik yondashuv asosida bo‘lajak jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida amaliy kompetentlikni rivojlantirish ....................485
**Dilnoza Nurmakhamatovna.**
It language and computer science ..................................................489
**Mapruza Embergenova.**
Mustaqillik davri qoraqalpoq dramaturgiyasining tadqiqot yo‘nalishlari .....................................................................492
**Xolbek Haydarov.**
Art pedagogika — zamonaviy ta’lim texnologiyasi sifatida ...........495
**Shohidaxon Abduraxmonova.**
Texnika otm talabalarining amaliy-kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish jarayonida o‘quv fanlarini integratsiyalash shart-sharoitlari ..............................................................................497
**Aygul Kaldibaeva.**
Digital communication tools in education ......................................500
**Xayriniso G‘aniyeva.**
Ingliz va o‘zbek tillarida tinish belgilarining tarjimaga xos jihatlari .....................................................................................503
**Xabiba Jurabekova.**
Talabalarda rus tilini o‘rgatish orqali kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari ............507
**Abduraxim Qahharov, Dildora Djurayeva.**
Kimyo fanini o‘rganishda virtual laboratoriyalardan foydalanishning samarali usullari ..................................................510
**Gulchekhra Razzakova.**
Innovation technology and it english..............................................513
**Shoira Shodmonova, Xaqnazar Hamzayev.**
Ta’lim jarayoni samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ustuvorligi...............................516
**Hilola Husanova.**
The role of reading activities in learning vocabulary .....................519

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Quronov M. Oila — uchinchi renessansning eng mustahkam ustuni. – T.: “Fan”, 2021. – 176 b.
2. J.Xolmo‘minov, “Tarbiya o‘chog‘i”// Ko‘kaldosh o‘rta maxsus islom bilim yurti mudarrisi. – 2022 yil. – 125 b.
3. S.Xayrullayeva, “Guliston” MFY otinoyisi, http://hazratnavoi.uz/maqolalar/2581-iz-bola-tarbiyasi-va-uning-shani.html
4. S.Mamadaliyev, Imom Termiziy. – T.: “Tafakkur”, 2010. – 64 b.
5. Xojieva Z.O‘. Didaktik tizimni modellashtirish orqali o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini insonparvarlashtirish (boshlang‘ich sinf misolida), p.f.b.f. doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan diss. – T., 2020. – 140 b.
6. https://pravacheloveka.uz/oz/news/m9828

## ADABIYOTNI QANDAY O‘QITISH KERAK?

**Saodat Kambarova,**
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat
o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
Ona tili va adabiyot ta’limi kafedrasi dotsenti

***Annotatsiya***

*Maqolada adabiyotning asosiy bilish obyekti inson, uning ichki dunyosi, odamlarga, jamiyat va tabiatga, umuman, voqelikka munosabati masalasi tahlilga tortiladi. Maktabda adabiyotning rolini faqat estetik zavq olish, voqelikni bilish yoki faqat o‘quvchilarning intellektual va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish bilan cheklash mumkin emasligi, aksincha, adabiyotga yaxlit yondashuv kerakligi nuqtayi nazaridan adabiy ta’lim jarayonini tashkil etish borasidagi masalalar yoritiladi. Badiiy adabiyotning vazifalari orasida, ayniqsa, yosh o‘quvchi ma’naviyati va estetik didi shakllantirilishi nazarda tutilib, bu ko‘p qirrali tushunchaning keng ma’noda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etishi asoslanadi.*

***Kalit so‘zlar:*** *adabiyot, so‘z san’ati, san’at, kitobxon, badiiy matn, idrok, o‘qish, o‘quv dasturlari.*

***Аннотация***

*В статье основным объектом познания литературы является человек, его внутренний мир, проблема его отношения к людям, обществу и природе, к действительности в целом. Вопросы, связанные с организацией литературно-образовательного процесса с точки зрения того, что роль литературы в школе не может ограничиваться только эстетическим наслаждением, познанием действительности или только развитием интеллектуальных и нравственных качеств учащихся, на напротив, необходим целостный подход к литературе. В числе задач художественной литературы рассматривается прежде всего формирование духовности и эстетического вкуса учащейся молодежи, и она основана на том, что это многогранное понятие приобретает важное воспитательное значение в широком смысле.*

***Ключевые слова:*** *литература, искусство слова, искусство, читатель, художественный текст, познание, чтение, учебная программа.*

***Annotation***

*In the article, the main object of knowledge of literature is a person, his horizon, the problem of his attitude to people, society and nature, and to reality in general. Issues related to the organization of the literary education process from the point of view that the role of literature in the school cannot be limited only to aesthetic pleasure, knowledge of reality, or only to the development of intellectual and moral qualities of students, on the contrary, a holistic approach to literature is needed. Among the tasks of fiction, especially the formation of the spirituality and aesthetic taste of a young student is considered, and it is based on the fact that this multifaceted concept acquires an crucial educational value in a broad meaning.*

***Keywords:*** *Literature, word art, art, learner, literary text, cognition, reading, curriculum.*

Adabiyotning vazifasi haqida gapirilganda, avvalo, asosli xulosalarga kelish uchun uning san’at turi sifatidagi mohiyati, o‘ziga xosligi, ijtimoiy ahamiyati haqidagi savollarga to‘xtalish zarur. Estetika va adabiy tanqidga manbalarda adabiyot metodologiyasi uchun so‘nggi yillarda san’atning ko‘p funksiyaliligi g‘oyasi ishlab chiqilgan. Bu yerda kitobxonning inson ma’naviy ehtiyojini qondirishi, yozuvchi bilan muloqot qilishi, badiiy so‘zdan o‘z kechinmalariga javob topishi, his qilishi, qalb bilan idrok etishi kabi masalalar turishini qayd etish joiz. Yozuvchi bilan suhbatga kirishish, uni ma’qullash yoki u bilan bahslashish o‘quvchi ma’naviy olamini boyitib, uning uchun sezilmas tarzda, balki irodasiga qarshi holda dunyoga, voqelikka, shaxsga yoki hayotiy pozitsiyasiga nisbatan o‘z qarashlarini shakllantiradi. Fojiali mojarolarni boshdan kechirib, katarsisga, ruhiy poklanishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, adabiyot so‘z san’ati sifatida o‘quvchiga nisbatan turli vazifalarni bajaradi, ya’ni qiziq-

ish va estetik zavq bag'ishlaydi. U yozuvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqa vositasi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchi badiiy asar mazmunini o'zlashtirishi, anglashi va idrok qilishi uchun hech bo'lmaganda "til", badiiy belgilar tizimi, badiiy obraz, asarning tuzilishi haqida elementar bilim va tasavvurga ega bo'lishi kerak. Bu hayotni tushunish va o'quvchini tarbiyalashning kuchli vositasidir. Qolaversa, bilim ham, tarbiya ham faqat unga xos usul va vositalar yordamida amalga oshiriladi.

Pedagogika va psixologiya fanlari doirasida insonning bilish jarayonlari, hissiy-irodaviy jabhalari, estetik tuyg'ularni rivojlantirish muammosi ko'plab olimlarning izlanishlarida yoritilgan. Xususan, Dj.Bruner [4], A.A.Verbitskiy [14], A.A.Leontev [9], M.S.Kagan [8] kabi olimlarning tadqiqotlarida shaxsiyat rivojlanishida adabiyotning o'rni, kitobxonning badiiy matnni idrok qilish masalalari shu nuqtayi nazardan o'rganilgan. Metodologiyada A.M.Antipova [1], G.I.Belenkiy [2], N.B.Belyayeva [3], A.B.Yesin [6]. E.K.Maransman [10], L.V.Shamrey [16] kabi rus metodistlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda insonning bilish jarayonlari va axloqiy sifatlari rivojida adabiy ta'lim tamoyillarini birlashtirishga qat'iy harakat qilingani kuzatiladi. Milliy metodikada mazkur muammo Q.Yo'ldoshev [15], S.Matchonov [11], Q.Husanboyeva [7], M.Mirqosimova [12], R.Niyozmetova [13] kabi metodist olimlar tomonidan umuminsoniy qadriyatlarni anglash va o'zlashtirish jarayoni o'z-o'zidan sodir bo'lmasligi, o'quvchi adabiyot fani orqali mavjud bilimlarni qaytadan yaratishi kerakligi, adabiy manba bilan uchrashish, sensorli tajriba jarayonida hissiyotlar subyektning ichki tajribasida gavdalanishi va axloqiy-estetik tarbiyalashi masalalari yoritiladi.

Adabiyotning asl mohiyati haqidagi chiqishlarida professor Q.Yo'ldoshev masalaga quyidagicha yondashadi: "Endilikda adabiyot nazariyasi bo'yicha beriladigan bilimlar ham o'quvchilarning tafakkurini sinash va uni qiynash vositasi emas, balki badiiy asarni o'qish va tahlil etishga ko'mak beradigan ma'lumotlar tarzida qaraladigan bo'ldi... Aslida, adabiyot tarixiga daxldor biror faktni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy faktlarning xronikasini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos eng insoniy fazilatlarni o'z tabiatiga singdirib ola bilgan o'quvchilar jamiyatimiz uchun ko'proq zarurdir" [15, 77–88].

Metodist olim S.Matchonovning fikricha, "Adabiyot hayotni aks ettiradi. Ayni paytda uni anglashning alohida shakli, haqiqatni tushunishga yo'l ochuvchi vosita hamdir. Adabiyotning vazifasi shu bilan cheklanmaydi. U hayotga yangicha mazmun bag'ishlab, ta'sir ham ko'rsatadi. O'quvchilarga buni tushuntirish uchun tahlil jarayonda badiiy asarda mavzuning muayyan shaklga ega bo'lishi to'g'risida umumiy ma'lumot beriladi" [11, 138].

Professor R.Niyozmetova adabiyotning shaxs kamolotiga ta'sirini yoritar ekan, shunday yozadi: "Asarda tasvirlangan voqea-hodisalar haqida mushohada yuritish jarayonida kitobxon, bir tomondan, badiiy asar bilan muloqotga kirsa, ikkinchi tomondan, tevarakdagi real muhit bilan muloqotda bo'ladi. Adabiy matn har bir kitobxon qalbiga o'zining qandaydir alohida mazmuni, tafsillari, timsollari bilan yo'l topadi, o'quvchi o'ziga biror yangilik kashf qiladi, qolaversa, kitobxonning o'zi ham matn mazmuniga biror yangilik olib kiradi" [13, 26].

Olimlarimizning fikrlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, adabiyot o'quvchilarga hayot haqidagi o'z tushunchalarini yoritishga va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanib, shaxsiy muammolarini hal qilish yo'llarini topishga, dunyo haqidagi o'z qarashlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu munosabat bilan, adabiyot o'qitish jarayonini bilim, ijtimoiy va shaxsiy ahamiyatga ega bo'lgan hissiy tajriba orqali sodir bo'ladigan tarzda o'zgartirish zarurati va o'quvchining o'zi-o'zi ijodiy rivojlanishiga hissa qo'shishi muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlash joiz.

Maktabda adabiyot fanini o'qitishning asosiy maqsadini o'quvchilarni dunyoning o'ziga xosligi bilan tanishtirish, ularni milliy va xalqaro badiiy madaniyat namunalari, taniqli adiblarning ma'naviy izlanishlari bilan tanishtirish, adabiyotga qiziqish uyg'otish, badiiy so'zni tushunishga o'rgatish va shu asosda hayot haqidagi tushunchalar, voqelikka faol munosabatni, axloqiy pozitsiyani shakllantirish, estetik did, qarashlar, ehtiyojlar, yuksak kitobxonlik va umumiy madaniyatni tarbiyalash tarzida belgilash mumkin.

Rus metodisti G.I.Belenkiyning ko'rsatishicha, "Badiiy adabiyotning polifunksionalligi, bir tomondan, mavzuning pedagogik yo'nalishi, ikkinchidan, maktabda adabiyotni o'rganish maqsadlari belgilanishida namoyon bo'ladi. Bu maqsadlarni birgina ibora yoki qisqa formula bilan ifodalash qiyin. Shunga qaramay, bunday ishlaydigan "formula" kerak — u diqqatni asosiy narsaga qaratadi, ulardan dastlabki qoidalar va xulosalarni birlikda ko'rishni osonlashtiradi" [2, 5]. Olimning fikriga qo'shimcha tarzda ta'kidlash o'rinliki, adabiy ta'limning maqsadlari bilan bog'liq holda adabiyot fanining tarkibi belgilanadi. Afsuski, mavzuning unchalik muvaffaqiyatli bo'lmagan nomi, ya'ni fanning atalishi ko'pincha tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi: adabiyot akademik fan bo'lishi mumkinmi? Bu san'at, maktabda biz fanni emas, san'atni o'rgatamiz. Darhaqiqat, maktabda biz adabiyotni san'at sifatida o'rganamiz. Ammo aynan san'atni o'rganish akademik fanning asosidir.

Ijtimoiy hayotda aylanma badiiy qadriyatlar oqimi tanqidiy va san'at tarixidagi fikrlarni o'z ichiga oladi. Masalan, o'quvchilarda A.Cho'lponning "Kecha va kunduz" asari O.Sharafiddinov, U.Normatov, A.Rasulov kabi adabiyotshunos olimlarning maqolalaridan; A.Qahhor hikoyalari esa A.Chexov ijodidan ajralmasligi haqida muayyan tasavvurlar shakllantiriladi. M.Behbudiyning "Padarkush" yoki A.Qodiriyning "O'tkan kunlar" asarlarini tanqidchi yoki adabiyotshunos olimlarning turli xil

va qarama-qarshi fikrlari kontekstida o'rganamiz. Eng jiddiy vazifa — har bir o'quvchi badiiy asarning obyektiv mazmunini anglagan holda, nafaqat baho olish yoki o'z bilimini boyitish, balki adabiyotni shaxsiy idrok etishini rag'batlantirishdir. Shu asosda ularda dunyo, san'at haqida fikrlash, chuqur his-tuyg'ular uchun ozuqa topiladi. Buning uchun o'quv dasturlarini tubdan qayta ko'rib chiqish kerak bo'ladi. Dasturlarga, asosan, insoniylikni saqlaydigan yuksak badiiy asarlar tanlanishi, yosh kitobxonlarning fikr va tuyg'ularini rivojlantirish maqsad qilinishi zarur. Dasturlarda zamonaviy ilm-fan yutuqlarini aks ettiruvchi va asarning g'oyaviy-badiiy konsepsiyasi, personajlari va ziddiyatlari to'g'risida turlicha fikr bildirish imkoniyatini hisobga olgan holda, badiiy asarlar talqinini qayta ko'rib chiqish ham maqsadga muvofiq. Dasturlar, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, ko'rsatmali qurollarning o'zgaruvchanligini ta'minlash, o'qituvchiga o'quv materialini o'rganishni erkin rejalashtirish, dasturlarni tanlash huquqini berish muhim sanaladi. Adabiy ta'lim tizimi haqida so'z borar ekan, darsdan va maktabdan tashqari ishlar, kutubxonalar, teatr, kino, san'at galereyalari, muzeylar, klublar, ommaviy axborot vositalari zarur o'rinni egallashi kerak.

Axborotlashuvning inson hayotidagi o'rni oshgan hozirgi paytda ijtimoiy va maktab pedagogikasining roli qanchalik paradoksal ko'rinmasin, adabiy ta'limni insonparvarlashtirish masalasi dolzarb vazifaga aylanib bormoqda. Binobarin, adabiyot eng insonparvar fanlardan biridir.

Ma'lumki, musiqa va tasviriy san'at faqat o'rta sinflarda o'rganiladi va bu fanlarni o'qitish holati qoniqarli emas. Yuqori sinflarda san'at faqat adabiyot bilan ifodalanadi (o'quv vaqtining 9-10%). Bu shaxsning axloqiy va estetik rivojlanishi jadal davom etayotgan, badiiy taassurotlar oqimi, badiiy ehtiyoj va didni shakllantirish har bir o'g'il va qiz uchun hayotiy zaruratga aylanishida muhim ahamiyat kasb etadi. San'at bilan aloqa qilmasdan inson ko'p qirrali shaxsga ham, to'laqonli ishchiga ham aylana olmaydi.

Agar adabiyotni o'rganishning axloqiy yo'nalishini kuchaytirish haqida so'z yuritilsa (bunday vazifani hayot talab qiladi), unda asosan badiiy asarlarni o'qish, muallif pozitsiyasi, personajlarning xarakter xususiyati, ijod olamining o'ziga xosligi kabilarni o'rgatish bilan bog'liqlikda kechishini o'rgatish zarurati aniqlashadi. Bir so'z bilan aytganda, ijodkorning ma'naviy-estetik yo'nalishi nafaqat san'at asarlarining o'ziga xos tarixiy mazmunini ochib berish bilan bog'liq, balki ularning doimiy, universal mazmuni va ma'nosini ham o'zida ifodalaydi.

O'smirlik bo'sag'asida va erta yoshlik davrida o'quvchilarda yozuvchiga shaxs sifatida va badiiy asar yaratuvchisiga bo'lgan qiziqish chuqurlashadi, hayot haqida keng umumlashmalarga, san'atning o'ziga xos jihatlarini, uning jamiyatdagi o'rni va rolini tushunishga ehtiyoj paydo bo'ladi. Psixologlarning ta'kidlashicha, bir yosh toifasidan ikkinchisiga o'tish avtomatik koeffitsientlarning kafolati emas. San'atga chinakam badiiy munosabatni yaratishda maktabning o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirish faoliyati zarur. Demak, adabiy ta'limda ma'lum bir bosqich va shu bilan birga, ketma-ketlik kerak. Ammo savol tug'iladi: har bir sinfda va har bir bosqichda material tanlash va tartibga solish prinsipi qanday?

R.Niyozmetova bu borada quyidagilarni ko'rsatadi: "o'quvchilarning yosh xususiyatlari, adabiy tayyorgarligi, DTS talablariga mos va munosib asarlarni tanlash; o'quvchilarning istaklari, adabiy materiallarni o'rganish imkoniyatlarini aniqlash; hajman kichik parcha ustida olib borilgan ishlar ko'lamini ajratib, chegaralab olish" [13, 75].

Masalaning yana boshqa muhim bir jihati Q.Husanboyevaning o'quvchilar badiiy didini tarbiyalashda kitob tanlash bilan bog'liq izlanishlarida aniqroq ifodalanadi. Jumladan, olimning fikricha, "Maktab bosqichida, shiddatli ravishda o'sib-rivojlanib, shakllanib borayotgan davrda yaxshi asarlarni o'qishdan zavqlanib, ruhiyati junbushga kelgan, bezovta bo'lgan, uni chinakamiga yig'latgan yoki qotib-qotib kulishga majbur qilgan asarni yozgan adibning uslubini, uning hayot hodisalariga munosabatini anglab o'rgangan kitobni kitobxon farqlashga qodir bo'ladi. Baland badiiy did o'qilgan asardagi qaysi jihatlardan zavqlanganini anglab, tuyg'ularini farqlab o'rgangan o'quvchida shakllanadi" [7, 193]

Muammoga har bir sinf yoki ta'lim bosqichi kurslarini qat'iy xronologik tamoyilga bo'ysundirish orqali yondashish kerakmi? Yoki xronologik tamoyilni muammoli-tematik, konsentrik va boshqalar bilan almashtirish, bu tamoyillar tarafdorlari ta'kidlaganidek, o'quvchining ehtiyojlari va qobiliyatini to'liqroq hisobga olish kerakmi? Bizningcha, badiiy asarlarni tanlashda uning tarbiyaviy ahamiyati, mavzusi, tur va janriy xilma-xilligi, o'quvchilarning yoshi, individual xususiyatlari, qiziqish va ehtiyjiyojlari ko'zda tutilishi maqsadga muvofiq. Mazkur masala o'quv dasturlari yangilanayotganda e'tiborga olib boriladi. Asarning "shaxsiy ma'nosi"da o'quvchi tushunadigan obyektiv, muallif tomonidan berilgan va o'quvchi tomonidan kiritilgan subyektiv narsa va bu obyektiv ma'lum bir darajada deformatsiyalanadi. Idrokning subyektivligiga yozuvchi tomonidan ko'tarilgan hayotiy materialning boyligi yordam beradi. Bu ko'pincha asarda qo'yilgan muammolar doirasidan tashqariga chiqadi, ya'ni yozuvchi o'zi xohlagan yo'lni hal qilganmi yoki yo'qligi, shunigdek, bu o'quvchining nima haqida o'ylashi va "tugatish" zarurati bilan bog'liq.

Haqiqiy insoniy munosabatlar olamini o'z qonuniyatlari asosida qayta tiklaydigan asarning badiiy olamiga hayotning barcha boyliklari, xususan, insonning tinimsiz va izlanuvchan tafakkuri kiradi. Shuning uchun ham san'atni idrok etish nafaqat his-tuyg'ular, balki ong bilan qo'shilgan his-tuyg'ulardir. Yozuvchi tomonidan chizilgan rasmlarni idrok etish va tajriba ruhiy yozishga olib keladi. Natijada katarsis hodisasi hissiyot va ratsionallikning ajralmas birligida yuzaga keladi.

Maktabda adabiyotni oʻqitish badiiy matnning oʻquvchiga taʼsiri, oʻqish va tinglash, oʻqish taassurotlari, kitobxon obrazlari, fikrlari bilan toʻxtab qolmaydi. Shu munosabat bilan har bir asar oʻquvchi ongida qaysidir maʼnoda boshqalar bilan murakkab va ziddiyatli birlikda yashaydi, goʻyo boshqa asarlar kontekstida tushuniladi. Taʼlim faoliyatida parallellik, taqqoslashning ahamiyati shundan kelib chiqadi. Xulosa qilganda, adabiyotni oʻqitishda: muallif pozitsiyasini chuqur anglash va ochib berish; asarning yaratilish davri va yaratilish davrini bogʻlovchi falsafiy-axloqiy boylikni yorituvchi oʻqishdan iborat tarixiy-funksional talqin; muallifning maʼnaviy-estetik dunyosi va u yaratgan personajlarga shaxsiy munosabatini chuqur idrok etish; biografik faktlarni hisobga olgan holda, ularning teranlikni anglashdagi oʻrni, asarning badiiy-poetik tarkibiy qismlari talqini; toʻqnashuvlar va syujet holatlari, ularning mos kelishini tahlil qilishga doir tizimli yondashuvlarni qoʻllash adabiyotni fan va sanʼat turi sifatida oʻqitishdan koʻzlangan maqsadga erishish omilidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Антипова А.М. Взаимосвязь теорико-литературных и эстетических категорий и понятий в школьном курсе. Автореф. дисс. ... док. пед. наук. – М., 2005. – 44 с.
2. Беленький Г.И. Приобщение к искусству слова: (Раздумья о преподовании лит. в. шк.). – М.: Просвещение, 1990. – 192 с.
3. Беляева Н.В. Формирование читательского восприятия при изучении лирики в школе: теоретические основы и практика. Автореф. дис. … канд. пед. наук. – М., 1997. – 20 с.
4. Брунер Дж. Психология познания. – М.: Прогресс, 1997. – 412 с.
5. Дремов А.Н. Специфика художественной литературы. – М.: Просвещение, 1964. – 264 с.
6. Есин А.Б. Принципы и приемы анализа литературного произведения: учеб. Пособие. – М.: Флинта, 2007. – 248 с.
7. Ҳусанбоева Қ.П. Адабиёт – маънавият ва мустақил фикр шакллантириш омили. – Т.: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009. – 368 б.
8. Каган М.С. Системно-синергетический подход к построению современной педагогической теории // Педагогика культуры, 2005. – № 3–4. – С. 12–21.
9. Леоньтев А.А. Чтение как понимание. Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии. – М.: Воронеж, 2001. – 253 с.
10. Маранцман Е.К. Методическая система развития образного и концептуального мышления школьников в процессе изучения литературных произведений. Дисс. … док. пед. наук. – М., 2005. – 457 с.
11. Матчонов С. Мактабда адабиётдан мустақил ишлар. – Т.: Ўқитувчи, 1996. – 208 б.
12. Мирқосимова М.М. Ўқувчиларда адабий таҳлил малакасини шакллантириш ва такомиллаштириш усуллари. Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 1995. – 253 б.
13. Ниёзметова Р.Ҳ. Узлуксиз адабий таълимда ўзбек адабиётини ўрганиш методикаси. – Т.: Фан, 2007. – 216 б.
14. Вербицкий А.А. Новая образовательная парадигма и контекстное обучение: монография. – М.: Флинта, 1999. – 140 с.
15. Йўлдошев Қ. Янгиланган педагогик тафаккур ва умумтаълим мактабларида адабиёт ўқитишнинг илмий-методик асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 1997. – 306 б.
16. Шамрей Л.В. Функциональные закономерности взаимодействия науки и искусства в школьном изучении литературы. Автореф. дис. … докт. пед. наук. – СПб., 1995. – 35 с.

 ISSN 2181-8274